

TURKCHA JURNALISTIKAGA OID MURAKKAB TERMINLAR TARJIMASI XUSUSIDA

Hamidov Xayrulla Xudoyorovich,
Filol. f. d. professor v.b.
Tarjimashunoslik va xalqaro
jurnalistika kafedrası professori v.b.,
Toshkent davlat sharqshunoslik
universiteti, Toshkent, O‘zbekiston.

Karausta Arzu,
Toshkent davlat sharqshunoslik
universiteti 2-bosqich magistranti,
Turkiya.

O‘zbekiston va Turkiya respublikalari orasidagi turli jabhalarda olib borilayotgan hamkorligimiz tobora mustahkamlanayotgan bugungi kunda ilm-fan sohasida ham yangidan-yangi imkoniyatlar ochilmoqda. Bu esa ilm kishilari zimmasiga o‘ziga xos mas’uliyatli vazifalar yuklaydi. Shu bilan birga, turkiyalik maslakdoshlarimiz bilan tillarimizni hamjihatlikda o‘rganishning ahamiyatini baholashga hojat yo‘q. Turk tilini yuksak darajada egallamoqchi bo‘lgan har qanday soha mutaxassisi birinchi navbatda o‘z sohasi bilan bog‘liq terminologiyani yetarli darajada egallamog‘i kerak. Shundan kelib chiqib, ushbu maqolada turk tilidagi jurnalistika sohasiga oid murakkab, ya’ni so‘z birikmasi shaklidagi terminlarning yuzaga kelishi, shakl va ma’no xususiyatlari haqida so‘z yuritiladi hamda ayrim xulosa va takliflar ilgari suriladi.

Avvalo shuni ta’kidlash kerakki, 2020 Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti (oliygo‘h 1991-2020 yillarda institut maqomida bo‘lgan) tashkil etilgach, universitetda bir necha yangi bakalavriat yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari, jumladan, “Tarjimashunoslik” kafedrası qoshida 60320100 – *Журналистика: халқаро журналистика (шарқ тиллари билан)* nomli yangi bakalavriat yo‘nalishi ochildi (kunduzgi va kechki bo‘limlarga o‘sha yili 50 nafar talaba qabul qilindi). 2024 yilda sharq tillari (turk, hind, xitoy va malay tillari)ni biluvchi, Sharq mamlakatlari bo‘yicha mutaxassis jurnalistlar yetishib chiqq boshlaydi. Demak, kelajakda xorijiy jurnalistika sohasida qilinadigan ilmiy-tadqiqot va o‘quv-uslubiy ishlar juda ko‘p.

Darhaqiqat, ushbu maqolada turk tilidagi jurnalistikaga oid murakkab terminlar, ularning shakllanishi, semantik, formal-sintaktik tahlili va bu tahlillar bilan bog‘liq ayrim masalalar ko‘rib chiqiladi. Bu esa, o‘z navbatida turk tilining leksik qatlamlarini chuqur bilishga ko‘mak beradi.

Ma’lumki, hozirgi zamonda jurnalistika sohasidagi o‘zgarishlar, globallashtirish jarayonlarining tez sur’atlar bilan o‘tib borishi ushbu sohada yangi-yangi tushuncha va terminlarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda. Terminlarni turli jihatlaridan tadqiq etish bugungi kunda tilshunoslik va tarjimashunoslikning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Terminlarning til lug‘aviy qatlamlaridagi o‘rni va vazifasini belgilash, ularning tushuncha sifatida mazmun-mohiyatini to‘g‘ri anglash nihoyatda muhim.

Har qanday terminologiya, shuningdek, jurnalistika terminologiyasi uchun ham juda muhim bo‘lgan umumiy xususiyat bu uning sistemaviyligidir. Terminlarning yana bir o‘ziga xos umumiy xususiyati bu ularning stilistik jihatdan neytralligidir. Zero, terminlarning yagona vazifasi real voqe‘likdagi tushuncha yoki ob‘yektning nomlashidir. Bu borada ular jargon so‘zlardan keskin farq qiladi, chunki jargon so‘zlar ma’lum emotsional-ekspressiv bo‘yoqqa ega bo‘ladi.

Turk tilidagi jurnalistika terminlari va ularni tarjimada berish masalalari mavzusi hali to‘liq yoritilmaganligi sababli ular ham tilshunoslik ham tarjimashunoslik sohasida ilmiy tekshirish ishlari, alohida ma’ruzalar, terminologiya bo‘yicha qo‘llanmalar shuningdek, lug‘atlar yaratishni talab qiladi. An’anaviy terminologiyada termin va unga doir muammolar, termin tushunchasi, uning o‘ziga xosligi, semantik va tarkibiy tuzilishi kabi masalalar qator tadqiqotlar ob‘ektiga aylangan.

Turk tilida jurnalistika sohasida qo‘llanib kelayotgan murakkab, ya’ni birikma shaklidagi jurnalistika tizimi atamlarining ko‘pchiligi sof turkcha va o‘zlashgan so‘z modelida tashkil topgan. Ahamiyatli tomoni shuki, maqolani tayyorlash jarayonida birgina **haber** (xabar), “basin” (matbuot) va “yayin” (nashr) so‘zlari asosiy komponent bo‘lib kelgan ko‘plab birikma shaklidagi terminlar borligi aniqlandi (imkoniyat cheklanganligi bois ushbu maqolada ana shu uch termin ishtirokida yasalgan jurnalistika terminlari tahlilga tortilmoqda) turlanish, shakl yasovchi qo‘shimchalar qo‘shilishi orqali yasaladi. Masalan: *haber – xabar (muhabir – muxbir, habercilik – axborot tarqatuv, almashinuvi, haberleşme – xabarlashuv, almashinuvi)* va b.: *özel haber* (axborotning maxsus soni), *radio haberciliği* (radio xabar almashinuvi), *TV haberciliği* (TV axboroti), internet haberciliği (internet orqali xabar tarqatish) kabi.

Haber bürosu (axborot byurosi), *haber bülteni* (axborot dasturi, yangiliklar), *haber ajansı* (xabar agentligi, axborot xizmati), *haber merkezi* (axborot markazi, yangiliklarni tarqatish markazi), *haber portalı* (xabar portali).

Yuqorida berilgan so‘z birikmasi shaklidagi misollarda jurnalistika termini (“haber”) belgisiz qaratqichli aniqlovchi vazifasida kelgan, ya’ni ular otli birikma

(isim tamlamaları) shakliga ega va birinchi komponentlarda qaratqich kelishigi qo‘shimchasi tushirilgan.

“Haber” so‘zi ishtirokida yuzga kelgan birikma-terminlarning aniqlovchi qismi sifat bilan ifodalangan (sifatlovchi aniqlovchi) bo‘lishi ham mumkin: *sansasyonel haber* (shovshuvli xabar), *yalan haber* (yolg‘on (fake) xabar), *flaş haber* (inkyuziv (flash) xabar), *yerel haber* (mahalliy axborot), *ulusal haber* (mamlakat hayotiga oid), *yanli haber* (biryoqlama xabar), *objektif haber* (xolis (objective) xabar) kabi. Bu misollarda “haber” termini sifatlovchi aniqlovchi vazifasini bajarib kelgan [1].

Yoki *Şişirme haber*, *atlatma haber*, *araştırma haberi* kabi murakkab birikmalari (*sifat tamlaması*) tarkibidagi aniqlovchi so‘zlar fe‘lning harakat nomi bilan ifodalangan. Birikmalar tarkibidagi *şişirme*, *atlatma*, *araştırma* so‘zlari fe‘llar asosida yasalgan va *haber* so‘zini aniqlab kelgan [2].

Turk tilida “basın” so‘zi vositasida ham ondan ziyod jurnalistikaga oid birikma shaklidagi terminlar yuzga kelgan: *basın bildirisi* (matbuot bayonoti), *basın kartı* (matbuot karti), *bulvar basını* (bulvar (ko‘cha) matbuoti), *basın özgürlüğü* (matbuot erkinligi), *basın ahlakı* (matbuot axloqi), *boyalı basın* (bo‘yoqli matbuot), *yerel basın* (mahalliy matbuot), *basın danışmanı* (matbuot maslahatchisi), *basın ataşesi* (matbuot attashesi), *basın bülteni* (matbuot (xabar) byulleteni), *basın yasağı* (matbuot taqiqi), *basın dünyası* (matbuot (nashr) dunyosi), *basın toplantısı* (matbuot anjumani), *ulusal basın* (milliy matbuot), *basın özeti* (matbuot xulosasi) [3].

Bir xabarni keng xalq ommasi orasida keng yoyish ma‘nosidagi “yaymak” (yoymoq) fe‘li o‘zagidan yasalgan “yayın” (nashr, yoyin, efir, radio to‘lqinlari ma‘nosida) so‘zi vositasida ham turk tilida ondan ziyod birikma shaklidagi jurnalistika terminlari yuzga kelgan: *yayın alanı* (nashr sohasi), *yayın organı* (nashr organi), *yayın evi* (nashriyot), *canlı yayın* (jonli efir), *kablolu yayın* (kabelli televideniye), *naklen yayın* (translyatsiya), *sürekli yayın* (davriy nashr), *deneme yayını* (test efiri), *radio yayını* (radio eshittirish), *uydu yayını* (parabolik ko‘rsatuv), *yerel yayın* (mahalliy efir, nashr), *ulusal yayın* (milliy efir, nashr) va b. [4]

Tadqiqot jarayonida turk tilida (*elektronik posta*, *alt başlık*, *köşe yazısı*, *sarı gazetecilik*, *dijital baskı*, *baş yazar*, *baş yazı*, *foto muhabir*, *sayfa sekreteri*, *ofset baskı*, *sür manşet*, *medya faresi*, *sosyal medya*, *ulusal medya*, *ana akım medya*, *yandaş medya*, *medya maymunu*, *medya grubu*, *elektronik gazete*, *akşam gazetesi*, *bulvar gazetesi* vb.) ikki yoki undan ortiq leksik birlik asosida yuzga kelgan yuzdan ortiq jurnalistikaga oid murakkab termin aniqlandi va ularning hosil bo‘lish qonuniyatlari, grammatik va leksik-semantik xususiyatlari ustida ilmiy ishlar olib borish kerak [5].

Turk tilining nisbatan yangi sohasiga oid terminologiyaning shakllanish va rivojlanish jarayoni murakkab bo‘lib, taxminan so‘nggi 60-70 yillik tarixni qamrab oladi. Bugungi kun dunyo tilshunosligida jurnalistika terminlarini tadqiq qilish, tasniflash va tavsiflash, soha terminlari tizimini me‘yorga keltirish va unifikatsiyalash, termin tarjimasini tizimlashtirish masalalari bugungi kun tartibidagi muhim va yechimini topishi zarur bo‘lgan masalar qatoriga kiradi. Qolaversa, xalqaro maydonda shiddat bilan kechayotgan globalizatsiya, iqlim o‘zgarishi, tabiiy ofatlar turk tilidagi jurnalistika ga oid terminlarning leksik qatlami huquqiy me‘yor va munosabatlar, tilning rivojlanish qonunlariga muvofiq ravishda taraqqiy etib bormoqda.

Xulosa. Ushbu maqolada turk tilida faol qo‘llanib kelayotgan jurnalistika terminlari, ularning til lug‘at tarkibida tutgan o‘rni va ahamiyati ta‘kidlandi, tuzilish, shakl turlari belgilandi. Xulosa chiqarishda turkshunoslikda o‘zlashgan atamalarning o‘rganilishida XX asrning oxiri va XXI asr boshida fanda to‘plangan tajribalarga tayanildi. Shundan kelib chiqqan holda, ushbu maqola “Turkcha jurnalistikaga oid terminlarning yuzaga kelishi, senantikasi va grammatik xususiyatlari” mavzuli tadqiqot bo‘yicha boshlangan ilk ishlardan bo‘lib, u orqali katta mavzuga kirib boriladi va istiqbolda bu boradagi ishlar yanada chuqurlashtiriladi, deb o‘ylaymiz.

Takliflar. Turk tilidagi jurnalistika sohasiga oid terminlar ustida olib borilajak tadqiqotlarni quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirish lozim:

- jurnalistikaga oid turkcha terminlarning o‘zbekcha izohli lug‘atini tuzish;
- turkcha jurnalistika sohasi terminlarining o‘ziga xos jihatlarini ilmiy tadqiq etish, xususan, terminlarning semantikasi, grammatik shakllanish qonuniyatlari va bu bilan bog‘liq mavjud ma‘lumotlarni tizimlashtirib o‘rganish (terminlarning leksik-semantik tasnifini amalga oshirish; terminlardan sof turkchalarini alohida ajratish; boshqa tillardan o‘zlashganlarini tahlil qilish; ularning tarkibini o‘rganish va grammatik xususiyatlari (tub yoki yasama so‘z shaklida)ni izohlash va buning asosida monografik tadqiqot yaratish va b.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Turk tili (darslik). – Toshkent, “Innovatsion rivojlanish nashriyot matbaa uyi” DUK: 2022. – 382 bet.
2. Türkçe Sözlük, Türk Dil Kurumu, 9. Baskı. 1.-2.Ciltler. – Ankara: 1998.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – М.: «Рус тили», 1981.
4. Büyük Rusça-Türkçe Sözlük. –М.: «Russkiy yazik», Multilingual. – İstanbul, 1995.
5. Büyük Türkçe-Rusça Sözlük.–М. 1977, Multilingual. – İstanbul, 1994; Баскаков А.Н. Турецко-русский словарь, Türkçe-Rusça Sözlük. –М.: «Русский язык» Yaıınevi, 1977.